XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 1-iyul VI-67-85-3-49-K/24 Zarbdor tumani

Zarbdor tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 25-apreldagi 51-3-49-F/24-sonli farmoyishiga asosan Respublika Ayerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Jizzax viloyati Zarbdor tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra umumiy perimetri **454 130 metr**, umumiy maydoni **75 875,83** gektar ekanligi aniqlandi. Tumandagi shaharcha va qishloqlarning umumiy uzunligi va umumiy maydonlari quyidagilardan iborat.

Jumladan:

Zarbdor shaharchasining umumiy perimetri 16 666 metr, umumiy maydoni 886,28 gektar;

Fayzobod shaharchasining umumiy perimetri 11 763 metr, umumiy maydoni 591,54 gektar;

Bo‘ston shaharchasining umumiy perimetri 12 430 metr, umumiy maydoni 557,50 gektar;

Sirg‘ali shaharchasining umumiy perimetri 12 152 metr, umumiy maydoni 382,85 gektar;

Sharq yulduzi shaharchasining umumiy perimetri 12 152 metr, umumiy maydoni 230,97 gektar;

Yangikent qishlog‘ining umumiy perimetri 68 947 metr, umumiy maydoni 14 639,38 gektar;

Adirobod qishlog‘ining umumiy perimetri 58 504 metr, umumiy maydoni 10 992,73 gektar;

Sharq yulduzi qishlog‘ining umumiy perimetri 57 338 metr, umumiy maydoni 9 018,83 gektar;

Lalmikor qishlog‘ining umumiy perimetri 44 919 metr, umumiy maydoni 10 285,85 gektar;

Andijon qishlog‘ining umumiy perimetri 35 195 metr, umumiy maydoni 6 832,97 gektar;

Tinchlik qishlog‘ining umumiy perimetri 39 320 metr, umumiy maydoni 8 386,76 gektar;

Oqar qishlog‘ining umumiy perimetri 47 983 metr, umumiy maydoni 6 273,47 gektar;

Toshkeskan qishlog‘ining umumiy perimetri 40 734 metr, umumiy maydoni 6 796,69 gektar ekanligi aniqlandi.

Zarbdor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda Zarbdor shaharchasi va har bir shaharcha hamda qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatgan holda tavsiflandi.

Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Respublika ayerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Zarbdor tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Zarbdor shaharchasi chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Zarbdor tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud (massiv) lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2024-yil 5-iyundagi 1-sonli yig‘ilish bayonini muhokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashining 67-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Respublika ayerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Zarbdor tumanidagi shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Zarbdor tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud (massiv) lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2024-yil 5-iyundagi 1-sonli yig‘ilish bayonini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zarbdor tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga, ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Zarbdor tumani Kengashining 2020-yil 5-fevraldagi 16/2-sonli hamda Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2020-yil 9-noyabrdagi 84/13-sonli qarorlariga asosan tasdiqlangan Zarbdor tumanning ma’muriy-hududiy chegarasiga o‘zgartirish kiritilishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati rahbari (O‘.Sulaymonov) ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining o‘rinbosari A.Erjigitov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RUZIYEV ZAFAR SHAROPOVICH

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 1-iyuldagi
VI-67-85-3-49-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Zarbdor tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarining chegaralarini belgilash to‘g‘risida

MA’LUMOT

№	Ma’muriy-hududiy birliklar nomlari	Umumiy perimetri (metr)	Umumiy yer maydoni (gektar)
1	Zarbdor shaharchasi	16666	886,28
2	Fayzobod shaharchasi	11763	591,54
3	Bo‘ston shaharchasi	12431	557,50
4	Sirg‘ali shaharchasi	12152	382,85
5	Sharq yulduzi shaharchasi	8179	230,97
6	Yangikent qishlog‘i	68947	14639,38
7	Adirobod qishlog‘i	58504	10992,73
8	Sharq yulduzi qishlog‘i	57338	9018,83
9	Lalmikor qishlog‘i	44919	10285,85
10	Andijon qishlog‘i	35195	6832,97
11	Tinchlik qishlog‘i	39320	8386,76
12	Oqar qishlog‘i	47983	6273,47
13	Toshkeskan qishlog‘i	40734	6796,69
	Jami	**454 130**	**75 875,83**

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2024-yil 1-iyuldagi
VI-67-85-3-49-K/24 -son qaroriga
2-ilova

